



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI .....	18
<b>O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich</b> <b>Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li</b>	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI .....	22
<b>Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna</b>	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
<b>Babajanova Dilfuza Abdurasulovna</b>	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .....	32
<b>Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna</b>	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
<b>Barotov Umidjon Mahmud o'g'li</b>	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
<b>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</b> <b>Abdullayeva Gulsanam</b>	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK .....	53
<b>Kambarova Liliya Ruslanovna</b>	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ .....	56
<b>Алибекова Саодат Лапасовна</b>	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	61
<b>Usmonova Dilfuza Iloxomovna</b>	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
<b>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</b>	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
<b>Xaydarova Kamola Axinjanovna</b> <b>Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li</b>	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISSLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	78
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b> <b>Xolmurodova Sevara Asqarovna</b>	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	84
<b>Guzal Navruzova</b>	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	88
<b>Mamayeva Diyora Kurbanbayevna</b>	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI .....	94
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH .....	100
<b>Dilfuza Xamzayeva</b> <b>Xurshid Xurramov</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH .....	106
<b>Otaxonova Roza Boboxon qizi</b>	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
<b>Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI .....	118
<b>Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	122
<b>Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li</b>	
ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
<b>Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li</b>	



# ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI

Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: [husanboyismailov@gmail.com](mailto:husanboyismailov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ekonometrik usullar yordamida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida moliyaviy ko'rsatkichlar, tashqi va ichki omillar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, ularning korxonalar barqarorligiga ta'siri baholangan. Shuningdek, olingan natijalar asosida kelgusidagi rivojlanish tendensiyalari prognoz qilingan. Tadqiqot natijalari aloqa korxonalarida samarali moliyaviy boshqaruvni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** aloqa korxonalari, moliyaviy barqarorlik, ekonometrik tahlil, prognozlash, moliyaviy ko'rsatkichlar, tashqi omillar, ichki omillar, iqtisodiy samaradorlik.

**Abstract.** This article presents an econometric analysis of the factors affecting the financial stability of telecommunications enterprises. The study identifies relationships between financial indicators, internal and external factors, and evaluates their impact on enterprise stability. Based on the obtained results, future development trends are forecast. The findings can be used to improve the efficiency of financial management in telecommunications enterprises.

**Key words:** telecommunications enterprises, financial stability, econometric analysis, forecasting, financial indicators, external factors, internal factors, economic efficiency.

**Аннотация.** В данной статье проведён эконометрический анализ факторов, влияющих на финансовую устойчивость предприятий связи. В ходе исследования выявлены взаимосвязи между финансовыми показателями, внутренними и внешними факторами, а также оценено их влияние на устойчивость предприятий. На основе полученных результатов выполнено прогнозирование дальнейших тенденций развития. Результаты исследования могут быть использованы для повышения эффективности финансового управления на предприятиях связи.

**Ключевые слова:** предприятия связи, финансовая устойчивость, эконометрический анализ, прогнозирование, финансовые показатели, внешние факторы, внутренние факторы, экономическая эффективность.

## KIRISH

“O'zbektelekom” AKning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni baholashda ekonometrik modellarni shakllantirish uchun, avvalo, bog'liq (endogen) ko'rsatkich ( $Y$ ) hamda unga ta'sir etuvchi mustaqil (ekzogen) ko'rsatkichlar ( $X$ )ni aniqlab olish zarur.

Ma'lumki, aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligi daromad hajmi, daromadlar tarkibi, raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, abonentlar bazasi, texnologik aktivlar va investitsion muhit kabi omillar ta'sirida shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan,  $Y$  – natijaviy ko'rsatkich,  $X$  esa uni shakllantiruvchi resurs va bozor omillari majmui sifatida qaraladi.

Ekonometrik tahlil jarayonida moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi asosiy endogen ko'rsatkich sifatida “O'zbektelekom” AKning jami daromadlari tanlandi. Shu bilan birga, muqobil variant sifatida sof foyda ko'rsatkichidan foydalanish ham mumkin.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy barqarorlik tushunchasining nazariy asoslari bir qator xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, Eugene F. Fama<sup>1</sup> moliyaviy bozorlarning samaradorligi nazariyasini ilgari surib, korxonalar faoliyatiga tashqi omillarning ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning ta'kidlashicha, bozor sharoitidagi o'zgarishlar korxonalarining moliyaviy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Stephen A. Ross<sup>2</sup> tomonidan ishlab chiqilgan arbitraj narxlash nazariyasi korxonalarining moliyaviy barqarorligiga makroiqtisodiy omillar ta'sirini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholashda ekonometrik yondashuvlar keng qo'llaniladi. Damodar N. Gujarati<sup>3</sup> o'z tadqiqotlarida regressiya tahlili hamda vaqt qatorlari modellarining iqtisodiy jarayonlarni prognozlashdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, ekonometrik modellar orqali moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va kelgusidagi tendensiyalarni ilmiy asosda prognoz qilish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, James H. Stock va Mark W. Watson<sup>4</sup> tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognozlash modellarini shakllantirish usullari keng yoritilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy usullardan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usullari orqali aloqa korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni hamda funksiyalari o'rganildi. Statistik tahlil usuli yordamida telekommunikatsiya xizmatlari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari va ularning iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqligi baholandi. Taqqoslash usuli asosida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi o'rganilib, ularning o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida aloqa korxonalarining faoliyati iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Dinamik tahlil usuli orqali esa sohaning rivojlanish bosqichlari, ya'ni an'anaviy aloqa tizimidan raqamli va innovatsion infratuzilmaga o'tish jarayonlari chuqur tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'z navbatida, ta'sir etuvchi omillarni tanlashda tizimli va kompleks yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, barcha ko'rsatkichlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra 4 ta guruhga ajratildi. Xususan, "O'zbektelekom" AK faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar quyidagicha guruhlashtirildi:

1. Daromad tarkibi bo'yicha:
  - mobil aloqa xizmatlari bo'yicha daromadlar;
  - internet va ma'lumot uzatish xizmatlari bo'yicha daromadlar;
  - xalqaro operatorlardan olingan daromadlar;
  - kanal ijarasi daromadlari;
  - "data center" xizmatlari bo'yicha daromadlar;
  - "call-markaz" xizmatlari bo'yicha daromadlar;
  - mahalliy telefon xizmatlari bo'yicha daromadlar.
2. Raqamli infratuzilma va bozor rivoji bo'yicha:
  - internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni (jismoniy shaxslar);
  - internet penetratsiya darajasi (100 aholiga nisbatan);
  - korxonalarda shaxsiy kompyuterlar soni;
  - internetga ulangan korxonalar ulushi;
  - telefon apparatlari bilan ta'minlanganlik darajasi.
3. Texnologik aktivlar bo'yicha:
  - telekommunikatsiya infratuzilmasi ko'rsatkichlari (abonentlar soni, tarmoq qamrovi);
  - "cloud" va "data center" xizmatlarining rivojlanish darajasi.
4. Investitsion va tashqi muhit bo'yicha:
  - xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni;
  - telekommunikatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalar soni;
  - AKT sektorining YAIMdagi ulushi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ekonometrik modelda moliyaviy barqarorlik natijaviy ko'rsatkich sifatida "O'zbektelekom" AKning jami daromad hajmi (Y) qabul qilindi. Uning shakllanishi daromad tarkibi, raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, abonent bazasi hamda investitsion muhit bilan belgilanadi. Shu bois, modelda mazkur omillar ekzogen o'zgaruvchilar (X) sifatida kiritildi (1-jadval).

1 Eugene F. Fama Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work.

2 Stephen A. Ross The Arbitrage Theory of Capital Asset Pricing.

3 Damodar N. Gujarati Basic Econometrics.

4 James H. Stock, Mark W. Watson Introduction to Econometrics.

1-jadval. Axborot va aloqa sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi<sup>5</sup>

Yil	"O'zbektelekom" AK daromadi, mlrd so'm	Mobil aloqa xizmatlari daromadlari, mlrd so'm	Ma'lumotlar uzatish va internet xizmatlari daromadi, mlrd so'm	Xalqaro operatorlardan olingan daromad, mlrd so'm	Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, ming birlik
2014	1 734,8	642,9	320,5	507,7	7 966,4
2015	2 041,0	756,4	377,1	597,3	8 339,1
2016	2 401,1	889,9	443,7	702,7	9 626,8
2017	2 824,9	1 046,9	522,0	826,7	11 168,0
2018	3 323,4	1 231,6	614,1	972,6	13 321,7
2019	3 909,8	1 449,0	722,4	1 144,3	16 386,2
2020	4 599,8	1 704,7	849,9	1 346,2	19 981,0
2021	5 686,3	2 155,7	1 311,5	1 415,9	22 987,2
2022	6 126,0	2 317,7	1 633,3	1 466,3	26 723,6
2023	7 748,5	2 589,1	1 927,8	1 655,6	30 061,0
2024	8 884,1	2 857,2	2 247,2	1 787,2	32 138,6

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tadqiqot davomida to'plangan statistik ma'lumotlarning davriyligi (kuzatilayotgan davrlar soni 10–15 yilni tashkil etadi) hamda yuqorida keltirilgan ta'sir etuvchi omillarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib, natijaviy ko'rsatkich (Y)ga omillar ( $X_1$ ,  $X_2$ ,  $X_3$ ) ta'sirini baholashda bir-biriga bog'liq bo'lmagan tenglamalar tizimi ko'rinishida ifodalash maqsadga muvofiq deb topildi.

$$\begin{cases} y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + \varepsilon \\ y = \beta_0 + \beta_1z_1 + \beta_2z_2 + \varepsilon \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda: Y – natijaviy ko'rsatkich, X – omillar,  $\beta$  – modellarning noma'lum parametrlari,  $\varepsilon$  – tasodifiy xatolik.

1) (Y)ga ( $X_i$ ) omillarning ta'sirini baholash bo'yicha.

$$y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + \varepsilon$$

Avvalo, natijaviy ko'rsatkich (Y) va unga ta'sir etuvchi omillar ( $X_1$ ,  $X_2$ ,  $X_3$ ) o'rtasidagi hamda omillararo o'zaro bog'liqlik darajasi korrelyatsion tahlil asosida baholanadi. Buning uchun "Stata" dasturi yordamida korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi tuzildi (2-jadval).

2-jadval. Korrelyatsiya matritsasi

O'zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) Y	1,000			
(2) $X_1$	0,991	1,000		
(3) $X_2$	0,990	0,980	1,000	
(4) $X_3$	0,971	0,985	0,937	1,000

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, natijaviy ko'rsatkich (Y) va unga ta'sir etuvchi omillar ( $X_1$ ,  $X_2$ ,  $X_3$ ) o'rtasida yuqori darajadagi (zich) korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Shuningdek,  $X_1$ ,  $X_2$  va  $X_3$  omillar o'rtasida ham sezilarli darajada o'zaro bog'liqlik kuzatildi.

Ta'kidlash joizki, modelga ikki yoki undan ortiq yuqori darajada chiziqli bog'langan omillarni kiritish multikollinearlik muammosini keltirib chiqaradi. Natijada regressiya koeffitsiyentlari qiymatlari noto'g'ri baholanishi va ularning iqtisodiy talqini murakkablashishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur natijaviy ko'rsatkich (Y)ga omillar (X) ta'sirini o'zaro bog'liq bo'lmagan tenglamalar tizimi ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\begin{cases} y = a_{10} + a_{11}x_{11} + \varepsilon \\ y = a_{20} + a_{21}x_{21} + \varepsilon \\ y = a_{30} + a_{31}x_{31} + \varepsilon \end{cases} \quad (2)$$

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Statistik ma'lumotlar (rasmiy nashrlar). "O'zbektelekom" AK. Yillik hisobotlar.



Modellarning noma'lum parametrlari ( $\beta$ ) eng kichik kvadratlar (EKK) usuli asosida aniqlandi. Ushbu jarayon "Stata" dasturi orqali amalga oshirilib, modellar qurildi hamda ular determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2$ ), Fisher mezonini ( $F$ ) va t-statistika ( $t$ ) asosida baholandi.

$$\begin{cases} y = -398,9 + 3,1x_{11} & R^2 = 0,98; F_{\text{his}} = 484,7 > F_{\text{jad}} = 6,5; t_{\alpha_{10}} = |-4,6|; t_{\alpha_{11}} = 22,0 (t_{\text{jad}} = 2,3) \\ y = 1003,8 + 3,9x_{21} & R^2 = 0,97; F_{\text{his}} = 424,1 > F_{\text{jad}} = 6,5; t_{\alpha_{20}} = 5,0; t_{\alpha_{21}} = 20,6 (t_{\text{jad}} = 2,3) \\ y = -1464,9 + 5,3x_{31} & R^2 = 0,94; F_{\text{his}} = 147,1 > F_{\text{jad}} = 6,5; t_{\alpha_{30}} = |-2,8|; t_{\alpha_{31}} = 12,1 (t_{\text{jad}} = 2,3) \end{cases}$$

Tuzilgan modellar barcha baholash mezonlari bo'yicha ijobiy natijalarni ko'rsatdi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Model natijalariga ko'ra, mobil aloqa xizmatlari daromadlari 1 mlrd so'mga oshganda, jami daromad o'rtacha 3,1 mlrd so'mga ortishi kuzatiladi. Bu esa mazkur omil bilan natijaviy ko'rsatkich o'rtasida barqaror ijobiy bog'liqlik mavjudligini anglatadi.

2. Ma'lumotlar uzatish va internet xizmatlari daromadi 1 mlrd so'mga oshganda, jami daromad o'rtacha 3,9 mlrd so'mga ortadi. Ushbu koeffitsiyentning yuqori qiymati internet xizmatlarining zamonaviy daromad modelida asosiy drayver ekanligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, "data" xizmatlari rivoji boshqa xizmatlar (kontent, qo'shimcha paketlar, korporativ yechimlar) daromadining ham oshishiga xizmat qiladi, ya'ni multiplikativ ta'sir kuchli namoyon bo'ladi.

3. Xalqaro operatorlardan olingan daromad 1 mlrd so'mga oshganda, jami daromad o'rtacha 5,3 mlrd so'mga ortadi. Mazkur natija xalqaro trafik, magistral kanallar va tranzit xizmatlarning yuqori hajm va tez kengayish xususiyatiga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shu bois, ushbu yo'nalish jami daromad shakllanishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

2) ( $\mathcal{Y}$ ) ga ( $Z_j$ ) omillarning ta'sirini baholash bo'yicha

$$y = \beta_0 + \beta_1 z_1 + \beta_2 z_2 + \varepsilon$$

Natijaviy ko'rsatkich ( $Y$ ) va unga ta'sir etuvchi omillar ( $Z_1, Z_2$ ) o'rtasidagi hamda omillararo o'zaro bog'liqlik darajasi korrelyatsion tahlil asosida baholanadi. Buning uchun "Stata" dasturi yordamida korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi tuzildi (3-jadval).

3-jadval. Korrelyatsiya matritsasi

O'zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)
(1) $Y$	1,000		
(2) $Z_1$	0,990	1,000	
(3) $Z_2$	0,499	0,399	1,000

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, natijaviy ko'rsatkich ( $Y$ ) va  $Z_1$  omili o'rtasida yuqori darajadagi (zich) ijobiy korrelyatsion bog'liqlik,  $Z_2$  omili bilan esa o'rtacha ijobiy korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga,  $Z_1$  va  $Z_2$  omillar o'rtasida past darajadagi ijobiy korrelyatsion bog'liqlik kuzatildi.

Modelga kiritilayotgan yuqori darajada o'zaro bog'langan omillar soni bittadan oshmaganligi sababli, modellashtirish jarayonini davom ettirish maqsadga muvofiq deb topildi.

Modellarning noma'lum parametrlari ( $\beta$ ) eng kichik kvadratlar (EKK) usuli asosida aniqlandi. Ushbu jarayon "Stata" dasturi orqali amalga oshirilib, model qurildi hamda u determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2$ ), Fisher mezonini ( $F$ ) va t-statistika ( $t$ ) asosida baholandi.

$$y = -1309,9 + 0,3z_1 + 49,9z_2$$

$$R^2 = 0,98; F_{\text{his}} = 527,6 > F_{\text{jad}} = 5,7; t_{\beta_0} = |-4,2|; t_{\beta_1} = 28,1; t_{\beta_2} = 3,7 (t_{\text{jad}} = 2,4)$$

Tuzilgan model barcha baholash mezonlari bo'yicha ijobiy natijalarni ko'rsatdi va quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Modeldagi 0,3 koeffitsiyent shuni anglatadiki, internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni har 1 ming birlikka oshganda, kompaniyaning jami daromadi o'rtacha 0,3 mlrd so'mga ortadi. Ushbu ko'rsatkich bozor sig'imi va xizmatlarga bo'lgan ommaviy talabni ifodalaydi. Demak, abonentlar sonining ortishi internet trafik hajmini kengaytiradi, xizmatlar iste'molini oshiradi hamda mobil va "data" xizmatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli abonentlar bazasi kompaniya daromadining muhim drayveri hisoblanadi.



2. Modeldagi 49,9 koeffitsiyent korxonalar va tashkilotlarning internetga ulanish ulushi 1 foiz punktga oshganda, jami daromad o'rtacha 49,9 mlrd so'mga ortishini ko'rsatadi. Mazkur omil korporativ yo'nalishning strategik ahamiyatini aks ettiradi. Korxonalar internetdan nafaqat ulanish vositasi sifatida, balki korporativ tarmoqlar, bulutli xizmatlar, "data center" resurslari hamda raqamli platformalar uchun faol foydalanadi. Ushbu xizmatlar aholi segmentiga nisbatan yuqori qo'shimcha qiymat va barqaror daromad manbayini shakllantiradi.

Modellashtirish natijalariga ko'ra, "O'zbektelekom" AKning moliyaviy barqarorligi raqamli infratuzilma va internetdan foydalanish darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Xususan, internetga ulangan abonentlar soni bozor sig'imini shakllantiruvchi bazaviy omil bo'lsa, korxonalar va tashkilotlarning internetdan foydalanish darajasi yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois, "O'zbektelekom" AK daromadlarining barqaror o'sishi, avvalo:

- internet infratuzilmasini kengaytirish va sifatini yaxshilash;
- korporativ raqamlashtirishni rag'batlantirish;
- "data" xizmatlarini chuqurlashtirishga bog'liq.

Umuman olganda, ekonometrik modellar "O'zbektelekom" AK moliyaviy barqarorligi nafaqat xizmatlar hajmiga, balki raqamli iqtisodiyotning institutsional rivojlanish darajasiga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Bunda abonentlar bazasining kengayishi daromad o'sishining ekstensiv manbai bo'lsa, korporativ internetlashuv darajasi intensiv o'sishning asosiy drayveri hisoblanadi. Bu esa kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi raqamli transformatsiya darajasi bilan bevosita bog'liqligini anglatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligi ko'p omilli jarayon bo'lib, unga ichki va tashqi omillar majmuasi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, korxonalarining daromadlilik, likvidlilik darajasi, kapital tuzilmasi, investitsion faolligi hamda operatsion samaradorligi moliyaviy barqarorlikni belgilovchi asosiy ichki omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy muhit, inflyatsiya darajasi, raqobat muhiti va texnologik rivojlanish darajasi kabi tashqi omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida qurilgan ekonometrik modellar yordamida moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlandi hamda ularning statistik ahamiyatlilik tasdiqlandi. Prognoz natijalari aloqa korxonalarida moliyaviy barqarorlikni saqlash va mustahkamlash uchun uzoq muddatli strategik yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish moliyaviy natijalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslandi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari aloqa korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda kompleks yondashuv zarurligini, ya'ni moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, investitsiya siyosatini faol yuritish hamda innovatsion rivojlanishni uyg'unlashtirish muhim ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, aloqa korxonalarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va likvidlilikni boshqarish tizimini kuchaytirish, moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish va prognozlashda zamonaviy ekonometrik usullardan, jumladan regressiya va vaqt qatorlari modellaridan muntazam foydalanish, shuningdek, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish uchun ichki hamda tashqi investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fama E.F. Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work.
2. Ross S.A. The Arbitrage Theory of Capital Asset Pricing.
3. Gujarati D.N. Basic Econometrics.
4. Stock J.H., Watson M.W. Introduction to Econometrics.
5. World Bank. World Development Report (so'nggi yillar nashrlari).
6. Qodirov A. Korxonalarda moliyaviy barqarorlikni boshqarish.
7. Ergashev Sh. Moliyaviy tahlil va boshqaruv asoslari.
8. OECD. Telecommunications and Digital Economy Outlook.
9. IMF. Global Financial Stability Report.
10. Wooldridge J.M. Econometric Analysis of Cross-Section and Panel Data.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---